

**“UMUMIY O’RTA TA’LIMDA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL  
ETISHNING SAMARALI BOSHQARUV USULLARI”**

*ORIENTAL UNIVERSITETI 70411201 – Menejment (ta’lim menejmenti)  
MELIBOYEV OLIMJON ALIBAYEVICH*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o’rta ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini samarali boshqarishning ilg‘or usullari o’rganilgan. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, innovatsion menejment texnologiyalari va pedagogik jarayonni optimallashtirishga qaratilgan strategiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda ta’lim muassasalarining samaradorligini oshirishda **raqamli texnologiyalar, monitoring tizimlari** va **ta’lim sifatini baholash mexanizmlarining ahamiyati** o’rganilgan. Tadqiqot davomida xorijiy va milliy ta’lim tizimlarida qo’llanilayotgan zamonaviy boshqaruv usullari o’rganilib, ularning o’zbek ta’lim tizimiga implementatsiya qilish imkoniyatlari aniqlangan.

**Kalit so’zlar:** Tendensiya, ta’lim, Ta’lim to ‘g‘risida”gi Qonuni, Diagnostik metodlar, akkreditatsiya, litsenziya, ichki monitoring.

XXI asrda ta’lim sohasidagi global tendensiyalar, raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsiyalarni joriy etish zarurati ta’lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Xususan, umumiy o’rta ta’lim muassasalari faoliyatida samarali boshqaruvni tashkil etish uchun mavjud jarayonlarni chuqur ilmiy asosda o’rganish zarurati ortib bormoqda. Ushbu tadqiqotda boshqaruv jarayonlarini o’rganish usullari, ularning turlari, afzallikkleri va qo’llanilish sohalari tahlil qilinadi.

Umumiy o’rta ta’lim tizimida boshqaruv tizimi – ta’lim sifati, samaradorlik, tashkiliy madaniyat va rahbarlik kompetensiyalarining uyg‘unligidan iborat murakkab tizimdir. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to ‘g‘risida”gi Qonuni (637-son, 2020-yil 23-sentabr) 30-moddasida ta’lim sifatini ta’minlash va baholash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi. Ushbu me’yoriy asos boshqaruv tizimini o’rganishga huquqiy poydevor yaratadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, umumiy o’rta ta’limda boshqaruv tizimini tahlil qilish – bu nafaqat tashkiliy boshqaruvda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, balki ilg‘or tajribalarni joriy qilish va ijobjiy o‘zgarishlarni bashorat qilish imkonini beradi.

Diagnostik metodlarni qo’llanilishi va yoyilishi bizning mamlakatimizdagи axloqiy standartlarga yoki professional axloq kodeksiga bo’ysunishi kerak. Pedagog - tashxischining professional axloqiy kodeksida insoniyat manfaatidagi fanning shakllanishi bilan ayrim individlarning muvaffaqiyati va huquqlarini himoya qilishdek

qadriyatlarning nizolari o'ren olgan kritik vaziyatlarga nisbatan diqqat – e'tibor qaratilgan bo'lishi kerak.

Yaxshi malakaga ega bo'lган pedagog - tashxischi shunday metodikalarni tanlay bilishi kerakki, ham shahsiy maqsad uchun o'tkazayotgan diagnostik jarayonga mos kelishi, ham tekshirilayotgan konkret kishi uchun mos tushishi lozim. Shuningdek, tanlangan metodikalarga aloqador ilmiy adabiyotlarni ham o'rgangan bo'lishi, hamda texnik ko'rsatkichlar bo'lган norma, ishonchlilik kabi xarakteristikalarini yaxshi bilishi kerak.

Monitoring – ta'lim jarayonining uzluksiz tahlilidir. U o'quvchilar, pedagoglar, rahbarlar va umumiy muassasa faoliyatini baholashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon ichki va tashqi monitoring ko'rinishida amalga oshiriladi. Ichki monitoringni muassasa ma'muriyati, tashqi monitoringni esa xalq ta'limi boshqarmalari, nodavlat ekspertlar olib boradi.

Ta'lim sifatini baholashda tashqi va ichki monitoringning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Tashqi mustaqil baholash ta'lim dasturlarining amalga oshirilish shart-sharoitlari va ularning natijalarini obyektiv o'lhash, ta'lim muassasasining imidjini shakllantirish, shuningdek, mustaqil ekspertlar ishtirokida sifat tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Bunda ikkita asosiy yo'naliш mavjud:

birinchisi – akkreditatsiya va litsenziyalash tartibida amalga oshiriladigan tashqi baholash;

ikkinchisi – ichki baholash orqali uzluksiz monitoring va ichki tahlil asosida ta'lim faoliyatining sifatini oshirish.

Akkreditatsiya jarayonlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan bo'lib, unda ekspertlar ta'lim tashkilotining nizomida ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib borayotganini nazorat qiladi. Shu bois ta'lim muassasalari bunday baholashga puxta tayyorgarlik ko'rishi zarur. Ichki baholash esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, o'quvchilar tayyorgarligining sifatli monitoringini yuritishga qaratilgan bo'lib, u ta'lim faoliyatining holatini dinamik kuzatish, tahlil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlaydi.

Ichki monitoringning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash; ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan asoslangan boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash; ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish; barcha ishtirokchilarni sifatli ma'lumot bilan ta'minlash; boshqaruv tizimini doimiy yangilab borish.

Shuningdek, ta'lim sifati monitoringining yana bir yo'nalishi ish beruvchilarning bitiruvchilar tayyorgarligiga bergan baholarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon ish beruvchilarning talablari va real ta'lim mazmuni o'rtasidagi moslikni aniqlash hamda ta'lim sifati tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalari o‘z ichki sifat monitoring tizimiga amaliyotchi ekspertlarni, ya’ni o‘quv jarayonida bevosita ishtirok etuvchi mutaxassislarini jalg qilish orqali aniq fanlar kesimida talabalarning bilim darajasini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat amaliy mashg‘ulotlar sifati va umumiy kasbiy tayyorgarlikning real darajasini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim faoliyatining sifati nafaqat ichki nazorat tizimlari orqali, balki tashqi baholash mexanizmlari, amaliyotchilar fikri, ish beruvchilar tahlili orqali har tomonlama tahlil etilishi kerak. Bu esa ta’lim muassasalarining uzluksiz rivojlanishiga, ta’lim jarayonining zamonaviy talablar asosida shakllanishiga xizmat qiladi.

Strategik yondashuv asosida boshqaruvni tahlil qilishda SWOT tahlil, PEST tahlil, Porter modelidan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu usullar muassasaning tashqi va ichki resurslarini aniqlash, xavf-xatarlarni baholash va imkoniyatlarni prognozlashda yordam beradi. Xolmuratov Sh.B. boshchiligidagi tadqiqotda ushbu usullar mакtabni raqobatbardosh tashkilotga aylantirishda muhim deb ta’riflanadi. Strategik boshqaruv — bu tashkilotning uzoq muddatli maqsadlariga erishishga qaratilgan kompleks boshqaruv faoliyati bo‘lib, tashqi va ichki muhitni tahlil qilish, maqsadlar qo‘yish, strategiyalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv ta’lim sohasida ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda, chunki ta’lim muassasalari faqat bugungi ehtiyojlarga emas, balki ertangi kadrlar bozorining talablariga ham moslashuvchan bo‘lishi zarur.

Ta’lim tizimida strategik boshqaruvning o‘ziga xosligi, eng avvalo, uning inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Boshqa sohalardagi strategik boshqaruv asosan moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan bo‘lsa, ta’limda bu jarayon bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish orqali jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot jarayonida ob’ektning ideal modelini yaratish zarurati tug‘iladi, chunki mavjud real holat ehtiyojlarga javob bermasligi mumkin. Shu bois, tadqiqotchi empirik materiallarga tayanib, ilmiy eksperimentlar o‘tkazadi. Ushbu eksperimentlarda ob’ektning rivojlanish istiqbollari sinovdan o‘tkaziladi, modellashtiriladi. Ammo ideal modelning tashqi axborotlar orqali kiritilishi doimo ob’ekt tomonidan ijobjiy qabul qilinmaydi. Agar bu axborotlar ob’ektning immanent (ichki) xususiyatlariga zid bo‘lsa, ijtimoiy qarshilik, hatto to‘qnashuv holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, eksperimentlarga tayyorlash bosqichida ob’ektning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga amal qilish muhimdir. Empirik va dala materiallarini o‘rganish, ularni tadqiqotning zamon va makon kontekstiga mos holda tahlil qilish zarur. So‘nggi yillarda ta’lim boshqaruvida raqamli texnologiyalar, elektron tizimlar (masalan: EMIS, e-DTS), sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish dasturlari (Power BI, Google Forms) keng qo‘llanilmoqda. Bu vositalar yordamida boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqtida nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini o'rganish metodlari turli xil bo'lib, ular o'zaro bir-birini to'ldiradi. Diagnostik tahlil mavjud holatni aniqlashga, strategik yondashuv kelajakni prognozlashga, monitoring doimiy nazoratga, empirik usullar esa real ijtimoiy holatni ochishga xizmat qiladi. Boshqaruvning strategik tahlili, faoliyat yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash orqali umumiy o'rta ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolmatov A. "Ta'lim menejmentining nazariy asoslari." Toshkent, 2020
2. Johnson M. "Educational Management and Innovation." Cambridge University Press, 2019
3. Axmedov Sh. "Axborot texnologiyalarining ta'lim boshqaruvidagi roli." Ta'lim va taraqqiyot, 2021.
4. Bass B. "Transformational Leadership in Education." Routledge, 2018
5. Tursunpo'latova Sadbarxon Husanboy qizi TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUVUSUL VA USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023 ISSN: 2181-3833
6. Karimova N. "Differensial yondashuv asosida o'qitish." Pedagogika ilmiy jurnalı, 2022.
7. Brown P. "STEAM Education and Future Skills." Oxford, 2020.
8. Qodirov I. "O'quv jarayonini baholash tizimining takomillashtirilishi." Toshkent, 2022.